

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E’TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA’LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO’NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O’QUVCHILARI O’RTASIDA TA’LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN’ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АҲАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO’NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO’NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ketayotganligi, yoki, yaqin qarindoshlaridan kimning qaramog'ida qoldirayotganligi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etishi kerak.

Turli xil ijtimoiy guruhlardagi migratsiya jarayonlari noaniq. Ular chuqurligi, intensivligi, namoyon bo'lish yo'nalishi bo'yicha farqlanadi. Ular guruh ichidagi o'zaro ta'sirning turli xil usullari va vositalari bilan ajralib turadi. Ular vaqt va makonda sezilarli darajada o'zgarib turadi, bu migratsiyani ijtimoiy mobillikning bir turi migratsiya harakatchanligi sifatida ko'rib chiqish huquqini beradi.

XULOSA

Xulosa o'rinda shuni keltirish mumkinki, ayollar mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari va zamonaviy yo'nalishlari quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

Birinchidan, bugungi kunda ishchi kuchi migratsiyasining globalizatsiya jarayonida dunyo manzarasi, xalqaro mehnat munosabatlari hamda inson resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish darajasining yaratilishiga asos boladi.

Ikkinchidan, jahon hamjamiyatining rivojlanish bosqichlarida migrant ayollarga bo'lgan talabning ortishi yangidan-yangi ish o'rinlarining yaratilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, jamiyat sotsial-iqtisodiy rivojlanishida jalb etilayotgan investitsiyalar asosida yangidan-yangi ishlab chiqarish sohalari joriy etish bilan aholi soni ko'payishi o'rtasida nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin.

To'rtinchidan, migrant ayollarga bo'lgan talabning o'sib borishi tendensiyasidan ularning soni kelajakda yanada ortishini prognoz qilish mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Department of Economic and Social Affairs, Population // Dynamics. 2019. <https://population.un.org/wpp/Download/Standart/Population/>
2. Migrant Workers Labour Migration Branch Conditions of Work and Equality Departmen of Statics Results and Methodology 2024. – P 12,14.
3. https://publication.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf
4. Galate M. Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates, International Labour Organization. Geneva, Switzerland, 2023. – pp 6-7.
5. Daniela Balzani, Fransesca Grivallara, Roza Grimaldi Higly skilled yet invisible. The potential of migrant women with a STEMM background in Italy between intersectional barriers and resources. 2024. – P.45-46.
6. Migrant mehnatkashklar to'g'risida qo'shimcha qoidalar. <https://nrm.uz>. Contendok 143-konvensiya.
7. Kadath P. In the Shadow of the State: The Recruitment and Migration of South Indian Women as Domestic Workers to the Middle East, International Labour Organization: Geneva Switzerland, 2024.
8. Migration and gender // Asia Reserch institute. Migration Cluster. Rejim dostupa: <https://www.ari.nus.edu.sg/article/view.asp.=188>
9. <https://kun.uz/ru/news/2023/02/20/v-2022-godu-pritok-trudovyx-migrantov-iz-uzbekistan-v-rf-vyros-na-351>
10. Rabiye B.B. O'zbekistonlik ayollar migratsiyasi (Rossiya Federatsiyasi misolida). Economy and Innvation ISSN: 2545-1573 Volume: 34 2024.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mirsoliyeva Nargiza,

Mustaqil tadqiqotchi

e-mail: 1285nmx@gmail.com

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI

<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yaponiyaning qadimiy madaniyat urf-odatlaridan biri bo'lgan "Choy taomili" marosimining kelib chiqishi, ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda choy marosimi nafaqat milliy an'ana va estetik hodisa sifatida, balki jamiyatda ijtimoiy mulqotni rivojlantiruvchi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlovchi madaniy institut sifatida o'rganilgan. Choy marosimiga ijtimoiy yondashuv marosimning ijtimoiy munosabatlari, odob-axloq va birlikni shakllantirishdagi rolini yoritadi, falsafiy tahlil esa undagi "Va", "Kei", "Sei", "Jaku" falsafasini tushuntirib beradi. Shuningdek, maqolada Yapon choy marosimini o'tkazish, marosimda ishlatiladigan an'anviy buyumlar va xatti-harakatlar madaniy ramz sifatida talqin qilinadi. Mazkur maqola Yapon choy marosimini ijtimoiy hayotda Yapon xalqining qadriyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlari: choy taomili, "tyado", "tyano", "matya", ruhiy porlik, uyg'unlik, go'zallik, "tyasitsu", "tokonoma".

Мирсолиева Наргиза,

Независимый исследователь

e-mail: 1285nmx@gmail.com

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЯПОНСКОЙ ЧАЙНОЙ ЦЕРЕМОНИИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются происхождения, социально-философские особенности и роль в обществе "Чайной церемонии", одной из древнейших культурных традиций Японии. В исследовании чайная церемония рассматривается не только как национальная традиция и эстетическое явление, но и как культурный институт, развивающий социальную коммуникацию в обществе и укрепляющий духовно-нравственные ценности. Социальный подход к чайной церемонии подчёркивает её роль в формировании социальных отношений, этикета и единства, а философский анализ раскрывает философию «Ва», «Кэй», «Сэй», «Дзюку» в ней. Также рассматривается японская чайная церемония, предметы и действия, используемые в ней, как культурные символы. Статья помогает понять роль чайной церемонии в общественной жизни и ценностях японского народа.

Ключевые слова: чайная церемония, "тядо", "тяно", "матя", духовные сияние, гармония, красота, "тясицу", "токонома".

Mirsoliyeva Nargiza,
Independent researcher
e-mail: 1285nmx@gmail.com

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE JAPANESE TEA CEREMONY

ABSTRACT

The article analyzes the origin, socio-philosophical features and the role in society of the “Tea Ceremony”, one of the oldest cultural traditions of Japan. The study examines the tea ceremony not only as a national tradition and aesthetic phenomenon, but also as a cultural institution that develops social communication in society and strengthens spiritual and moral values. The social approach to the tea ceremony highlights the role of the ceremony in forming social relations, etiquette and unity, while the philosophical analysis explains the philosophy of “Wa”, “Kei”, “Sei”, “Jaku” in it. The Japanese tea ceremony, the objects and actions used in it, are also considered as cultural symbols. The article helps to understand the role of the tea ceremony in the social life and values of the Japanese people.

Keywords: tea ceremony, “tyado”, “tyanoyu”, “matcha”, spiritual radiance, harmony, beauty, “tasitsu”, “tokonoma”.

KIRISH

Yaponiya – qadimiy madaniyatiga boy boʻlgan Sharq mamlakatidan biridir. Yaponiyaning milliy madaniyati, anʼanalari va urf-odatlarini butun dunyoga mashxur. Yapon millati oʻzining oqkoʻngiligini hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan boshqa xalqlardan farq qiladi. Yapon madaniyatining ijtimoiy-falsafiy qarashlarining shubhasiz yapon xalqining ona tabiyatga, uning goʻzalligiga boʻlgan oʻzgacha munosabat taʼsir koʻrsatadi.

Qadim zamonlarga yapon xalqi oʻz tabiatining goʻzalligiga taʼzim qilib, tabiat bilan uygʻunlikda yashashga, tabiatning ulugʻligini hurmat qilishga xarakat qilganlar. Yapon madaniyatining oʻziga xos ijtimoiy-falsafiy qarashlarining shakllanishi yapon xalqining urf-odatlarini anʼanalari, marosimlarini hech biri oʻzgarmasdan qabul qilinganidir. Yapon xalqi ijtimoiy qarashlarning oʻzgarmasdan qabul qilinishidan juda minnatdor boʻladi [6].

Har qanday marosim va urf-odatlarni oʻzgarmasdan qabul qilish, bu ularning asosiy qoidalaridir. Yapon madaniyatining chuqurroq tushunish uchun unga ijtimoiy-falsafiy qarashlar oʻrqli yongdashish lozim.

METODOLOGIYA

Yapon choy taomili marosimini nafaqat estetik hodisa sifatida, balki jamiyat, madaniyat va falsafiy qadriyatlarining uygʻunlashgan koʻrinishi sifatida tahlil qilishdir. Choy marosimining jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati, gender tengligi, ijtimoiy munosabatlari, odob-axloq va ijtimoiy birlikni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish. Choy marosimini milliy oʻzlikni ifodalash vositasi sifatida koʻrish. Choy marosimiga singdirilgan soddalik, tabiiylik, goʻzallik, uygʻunlik, oʻzaro hurmat, sokinlik tushunchalarni oʻrganish. Choy marosimi boʻyicha yozilgan asarlar, qoʻllanmalar, estetik va falsafiy matnlarni, marosim jarayonini bevosita kuzatish, undagi ijtimoiy muloqot va xatti-harakatlarni tahlil qilish. Yapon falsafasiga oid akademik tadqiqotlar, zamonaviy sotsiologik madaniyatshunoslik maqolalari, bevosita choy marosimi amaliyotdan olingan kuzatuvlar va intervyular. Yapon choy marosimining nafaqat ichimlik tayyorlash marosimi, balki jamiyatni birlashtiruvchi madaniy institut sifatidagi ahamiyatini asoslash.

ASOSIY QISM

Yaponiyaning boy madaniy meroslaridan hamda Yapon madaniyatining oʻziga xos shakli boʻlgan “choy taomili” marosimi chuqur ijtimoiy-falsafiy qarashlarga ega marosim hisoblanadi. Yapon “choy taomili” marosimi (“tya-do”, “sado” yoki “tya-no-yu”) Oʻrta asrlarda Yaponiyada vujudga kelgan, kʻok choy kukuni (yʻani “mattyu”) [5, – B.9] orqali damlanib, oʻtkaziladigan marosim turidir. Bu oddiy ichimlik ichish jarayoni emas, balki bu choy marosimi Yapon sanʼat

na'munasi sifatida o'ziga ruhiy poklanish, go'zallik, sukunat va osoyishtalik, hurmat qilish va ichki uyg'unlikni ifoda etuvchi ijtimoiy-falsafiy marosim hisoblanadi [1, – B.194]

Yaponiyada choy marosimi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ko'zgusi va milliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Choy marosimida tabiat uyg'unligi mujassam bo'lgan, sokin tafakkur qilish, muloqotda bo'lish, ijodiy erkinlik, sukunat va osoyishtalik talab etadigan nafosatli marosimdir. Choy marosimi Yaponiyaning milliy go'zallik ramzi va milliy madaniyatining bir qismi sifatida o'ziga xos san'at asari hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, choy marosimi qadimgi Xitoyga borib taqaladi. Xitoyning ikkinchi imperatori Shen Nung nomi bilan bog'lanadi [8, – B. 45]. Besh ming yil ilgari imperator ilk bor bu ichimlikni tatib ko'rgan va choyni iste'mol qilganda uning sog'lig'i yaxshilangan. Uzoq tarixga ega bo'lgan choy ichimligining inson salomatligi, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

VIII asrda choy Dzen buddizm ruhoniylari tomonidan Yaponiyaga olib kelingan. Lekin XII asrda choydan foydalanish madaniyati keng tarqalgan. Keyinchalik Yaponlar o'z falsafasi va estetikasi bilan ijtimoiy hayotni boyitgan. Ayniqsa, Dzen buddizm ruhoniylar uni ibodat paytida iste'mol qilib, ruhiy tozalanish vositasi sifatida, dam olish, har hil uchrashuvlar paytlarida choy ichishni urfga aylantirgan. Aslini olganda, choy marosim sifatida Xitoyda hali buddizm keng yoyilmagan paytda mavjud bo'lgan. Rivoyatlarda bu marosimni Lao-Szi joriy qilgan. Eramizdan oldingi V asrda Xitoyda bu marosimni “oltin eliksir” deb, Xitoydagi ziyofatlar paytida kuzatilgan [1, – B.194]

Yaponiyada choy marosimini san'at darajasiga ko'targan tarixiy shaxs, ruhoniy Sen no Rikyu (XVI asr) marosim qoidalarini boyitib olib chiqqan. Sen no Rikyu marosimga “vabi” – sodda kamtarona, hamda “sabi” eskilikdagi go'zallik tushunchalarini olib kirgan [9, – B.87]. Choy marosimini ijtimoiy-falsafiy to'rt asosiy tamoyillarini Sen no Rikyu quyidagicha ta'kidlaydi:

1. “Va” – uyg'unlik. Mexmonlar va uy egalari o'rtasidagi muomala, inson va tabiat o'rtasidagi moslik.
2. “Kei”- xurmat. Har bir ishtrokchiga buyumlarga, atrof-muhitga chuqur xurmat bilan qarash.
3. “Sei”- poklik. Faqat jismoniy emas, balki ruhiy tozalik. Har bir buyum, xarakat va so'z bu ichki poklik aksidir.
4. “Jaku”- sokinlik. Choy marosimi so'ngida erishiladigan ichki tinchlik, xotirjamlik holati [7, – B.184].

XVI asrdan boshlab Choy marosimi haqiqiy san'at darajasiga yetdi va har qanday san'atdagi kabi unda bajarilishi kerak bo'ladigan barcha harakatlar shaklining ifodalashiga katta ahamiyat berila boshladi.

Keyinchalik “Choy taomili” marosimi Syogunlar, samuraylar va zodagonlar orasida rivojlangan. Bu esa ijtimoiy pog'onalarni aniqlash va mustahkamlash vositasi bo'lgan [4, – B.5].

Choy marosimi yapon milliy tadbirlarida, festivallarida, bayramlarida ko'p o'tkaziladi. Choy marosimining butun tashqi “muhiti” tabiatga yaqinlashishga intilishning namoyon etar edi. Choy ichish uychasi o'z atrof-muhiti bilan sof tabiatning bir bo'lagini, dunyo g'am-tashvishlarini tark etgan odam kulbasini namoyon etadi. Choy marosimi “Tyasitsu” nomli choy uylarining kirish ostonasida “dunyoviy tashvishlarini unitish kerakligi”, -ta'kidlanadi. Bu ham ijtimoiy-falsafiy ma'noda, insonni dunyoviy tashvishlardan xoli bo'lib, inson o'z ichki xotirjamligiga erishish hamda marosimdan lazzatlanishi hissi bo'lishi kerakligi fikr yuritiladi. Yapon xalqi “Shu vaqtning o'zida marosimning butun tashkil etilishi to'la ramziydir, hatto bog' yo'lakchasidagi toshlar ham Budda makoniga eltuvchi murakkab yo'lni eslatadi, keraksiz va ortiqcha dabdaba va kundalik tashvishlardan voz kechish zarurligini bildiradi,- deb ta'kidlashadi [1, – B.195].

Choy marosimining yana bir ijtimoiy xususiyati, bu choy marosimida ishtrok etuvchi hona ichkarisiga kirish uchun pastligi 200sm bo'lgan eshikdan tizzasini bukkani holda cho'kka kiriladi va qatnashuvchilar qurollari yoki martabasini bildiruvchi belgilarni olib kirishmagan, har qanday kishi unvoni va mansabidan qat'iy nazar qatnashuvchilar bir-biriga xurmat ko'rsatib “tenglik”da bo'lishdir [7, – B.98]. Choy marosimi kishilarga xotirjamlik, tinchlik, poklik va kishilarga dam olib

hordiq chiqaradigan marosim bo'lgani uchun ham har bir insonlar o'zaro tengdir. Marosim joyida barcha pastdan o'tiriladi, bu hamma uchun bir xil darajadagi meyorini bildiradi. Choy marosimini tarixda ma'lumki, faqat erkaklar o'rtasida rivojlangan. Keyinchalik ayollar ham choy marosimini o'tkazib kelishgan. Bugungi kunda choy marosimida erkaklar va ayollar teng darajada qatnashish huquqiga ega. Choy marosimi gender tengligi borasida Yaponiyaning ko'plab boshqa an'analari, san'at turlariga qaraganda ancha ochiq va moslashuvchan bo'lib qolgan.

Choy marosimi nafaqat choy ichish emas, balki bunda insonni o'rab turgan barcha narsa, u bajarayotgan har bir harakat qay darajada uni bajarish ahamiyatga ega bo'ladi: egilib salom berish, qay holatda o'tirishi, yuz ifodasi, so'zlash usuli, hattoki sukut saqlashi. Choy marosimi qatnashuvchilari o'tasidagi aniq tartib va harakat bu ijtimoiy maqomini bildiradi. Mehmonlar mezmohga hurmat bilan bo'ysunadi, bu esa yapon xalqini jamiyatdagi bir-birini hurmat qilish timsolidir. Marosim davomida har bir ishtirokchi boshqalarning hissiyotini e'tiborga oladi, o'zini emas, jamiyatni asosiy markazga qo'yadi. Bu esa Yapon jamiyatining asosiy ijtimoiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Choy marosimining ijtimoiy-falsafiy xususiyati, choy marosimi o'tkaziladigan xonalarda alohida "tokonoma" ya'ni kalligrafiya yozuvi bilan yozilgan me'moriy rasmlar va guldastalarni qo'yilishidir. Bu "tokonoma" xonalarga shunday sokinlikni nafosatni baxsh etadi [6, – B.4]. Bundan tashqari marosimda ishlatiladigan noodatiy ajoyib misdan tayorlangan choynaklar, bambukdan qilingan idishlar, toza sopol piyolalar hamda choy saqlovchi qutilar barchasi qatnashuvchiga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Yapon choy marosimi Yapon madaniyatining noyob san'ati sifatida o'zining ijtimoiy-falsafiy qoidalari bor. Masalan, mezmon mehmonga choy uzatishda piyolani soat ko'rsatgichi tomon aylantirib mehmonga uzatadi.

Mehmon piyolani olib, oldida o'tirganlardan ijozat so'rab, piyolani yuza qismini o'ziga qarata chap qo'li bilan piyola tagini o'ng qo'li bilan piyolani berkitib ichadi. Bundan maqsad, piyolani soat ko'rsatgichi bilan aylantirib o'ziga qarata ichish, marosimga bo'lgan xurmat va kaftiga qo'yishdan maqsad, idishlarni nafosat bilan saqlash, piyolani tushurib yobormaslikni oldini olish va piyolalar ham xuddi qoidalar kabi qadrli bo'lishdir. Har bir narsa dunyoda zamonaviylashish jarayonida, choy marosimi ham milliy an'analarni saqlagan holda muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Choy marosimini o'zgartirishga harakat qilishdi ammo bu Yapon madaniyatining mazmunini o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan so'ng, milliy an'ana va qadriyatlarni mazmunini o'zgartirmaslik tizimi ishlab chiqarildi. Yaponiyada ko'plab shakldagi choy marosimlari mavjud. Ular: Quyosh chiqish oldidan choy, ertalabki choy, tushlikdagi choy, oqshomgi choy, tungi choy va maxsus choy marosimlaridir [2, – B.72].

Biz uchun oddiygina hisoblangan Yapon choy marosimi Yapon millatining madaniyat qalbi, Yaponcha topqirlik, latofat va nafosatni, osoyishtilikni o'rgatadi. Ayni paytda, choy marosimi milliy tuyg'ularni tarbiyalashga, jamiyatda kishilarni qat'iy tartiblarga, muayyan qoidalarga amal qilishga o'rgatadi. Choy marosimini asosiy ijtimoiy-falsafiy xususiyati shundaki, nafaqat bu choy ichish emas, balki bunda insonni o'rab turgan barcha narsa, u bajarayotgan har bir xarakat qay darajada uni bajarish hamda xulq-atvorning muayyan tartibi, xarakatlarni go'zalligi, o'ziga xos ruhiy xolat, uyg'unlik, o'zaro hurmat, soflik va tenglik nafis san'at turkumidir. Choy marosimi insonda doimiy bir "Ruh" qoldirib, insonni ko'ngilli vaziyatga intilishga, kundalik tashvish va ishdagi ortiqcha xarakatlarni chetga surib, insonni tashqi olamni idrok qilishdan, insonni butun diqqatini ichki dunyo olamni ahglashga, ichki ruhiy hotirjamlik baxsh etishga, insonlarni ijtimoiy qoidalarga rioya qilishga o'rgatadi.

XULOSA

Xulosa qilib, Yapon "choy taomili" marosimi Yapon madaniyatining ijtimoiy hayotdagi go'zalligini ko'rsatib beruvchi, insonda hayotni chuqur ahglash, ruhiy uygu'nlikka erishish, hayotni chuqur his qilish, ijtimoiy-ahloqiy qadriyatlarini tushunishga yordam beruvchi marosim hisoblanadi. "Choy taomili" marosimi jamiyatda ijtimoiy tartibni mustahkamlovchi, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlari va o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi institut hisoblanadi. Undagi har bir harakat "choy tayyorlash", "topshirish va tanavvul qilish" aniq qoida-tartiblar asosida amalga oshirilib, bu esa ijtimoiy hayotda nazoratni aks ettiradi. "Choy marosimi" insonni hayotni qadrlash

madaniyatini rivojlantiradi. Shuningdek, “Choy marosimi” ijtimoiy muloqot va diplomatiya vositasi sifatida xizmat qilgan.

Bu haqida biz yuqorida misol tariqasida, tarixda “Choy marosimi” siyosiy muzokaralar, do’stona uchrashuvlar va madaniy diplomatiya aloqalar paytida, bugungi kunda ham “Choy marosimi” xalqaro tadbirlarda yapon madaniyatini namoyish etuvchi eng muhim ramzlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiyalarga boy davrda Yapon milliy madaniyatini “Choy taomili” marosimi insonga chuqur mulohaza qilish ichki hotirjamlikka erishishga yordam beradi. Hozirgi davrda Yaponiya o’ta taraqqiy etgan mamlakat bo’lsa-da, yaponlar choy marosimiga hanuzgacha og’ishmay amal qilib keladi. O’zbekiston Respublikasida hozirda Yaponiya elchixonasida, Ikuo Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyi, O’zbekistondagi “Urasenke” choy guruhi, O’zbekiston-Yaponiya markazlarida choy marosimlari o’tkazilib kelinadi [10, – B.34] Bu tadbirlar ikki xalq o’rtasida do’stona munosabatni mustahkamlash va bir-birining madaniyatiga hurmatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O’zbekistonda choy marosimini san’at darajasida o’rgatadigan o’qituvchilar ham bor. Yapon “Choy marosimi”ning O’zbekistonga bevosita ta’siri keng ko’lamda bo’lmasa-da, u asosan madaniy almashinuvlarda, turizm, ta’lim va diplomatik aloqalar orqali sezilmoqda. Zamonaviy Yaponiyada choy marosimi endilikda faqat an’anaviy rasmiyat emas, balki ta’lim, diplomatiya va madaniyatlararo muloqot vazifasiga aylangan. Uni o’rganish orqali insonlar Yapon jamiyatining qadriyatlari tizimini chuqurroq tushunishga harakat qilishadi [4, – B.4].

O’zbekiston va Yaponiya o’rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalar ikki xalq orasidagi do’slik va o’zaro hurmatga asoslangan, ko’p qirrali va istiqbolli hamkorligidir. Bu aloqalar faqat doiradagina emas, balki xalqlar o’rtasidagi madaniy muloqot va yaqinlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Har ikki davlatda madaniy tadbirlar masalan, Toshkentdagi “Yaponiy madaniyat kunlari”, kinofestivallar, ko’rgazmalar, konsertlar va boshqa xalqaro festivallarda Yapon choy marosimi ko’rgazmali tarzda namoyish qilinadi.

Bu nafaqat Yapon madaniyatini tanishtiradi, balki o’zbek mehmondo’lik an’analari bilan qiziqarli taqqoslash imkonini beradi. O’zbekistonda Yapon milliy urf-odatlarini xususan choy marosimi, kalligrafiya, origami va boshqa san’at turlari ommalashib bormoqda. Yaponiyada esa, O’zbekistonning boy tarixi va madaniy merosi, masalan Temuriylar davri san’ati, Ipak Yoli merosi targ’ib qilinadi. O’zbekistonda ko’plab oliy o’quv yurtlari yapon tili o’qitiladi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bu borada etakchi hisoblanadi. Yaponiyadagi ba’zi universitetlarda o’zbek tili va Markaziy Osiyo bo’yicha tadqiqotlar olib boriladi. Yaponiyada ta’lim almashinuvi dasturlari orqali borib kelgan talabalar marosimda qatnashib, bu an’analarni kuzatib bilimga ega bo’lib kelmoqda [3, – B.2].

O’zbekistonda ham choy nafaqat ichimlik, balki choy madaniyatini butun bir ijtimoiy-falsafiy hususiytlari ham bor. Choy madaniyati O’zbek xalqining haq bir tadbirlarida, kundalik hayotida, muzokoralar va xalqaro suhbatlarda mehmonni kutib olish iliqlik va samimiyat ramzi hamda mahalliy ijtimoiy hayotda jipslik va birdamlikni mustahkamlovchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, O’zbekistonda choy madaniyati uzoq vaqtdan beri mamlakat madaniyati va an’alarining bir qismi bo’lib kelgan. Choy madaniyati afsonaviy O’zbek xalqining mehmondo’sligini aks ettiradi. O’zbek choy madaniyatida qulaylik va samimiyat ustivor bo’lib, dastirxonga turli taomlar bilan boyitiladi.

O’zbekiston va Yaponiya choy madaniyati bir-biridan shakllanish tarixi, marosim jarayoni va estetik yondashuvi jihatidan farqlari bo’lib, ammo choy madaniyati O’zbek va Yapon xalqining ijtimoiy birlik, hurmat va mehmondo’slik g’oyalarini targ’ib qiladi [10, – B.25]. O’zbek choy madaniyati samimiylilik va sahovatni aks ettirsa, yapon choy marosimi ruhiy osoyishtalik va estetik uyg’unlikni ifodalaydi. Choy madaniyati bu ikki mamlakatda madaniy almashinuv orqali bir-birini boyitishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi butun dunyoda choyning uzoq tarixi, chuqur madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini e’tirof etib, 2020- yildan boshlab, har yili 21-mayni Xalqaro choy kuni deb e’lon qildi [11, – B.2]. Xalqaro choy kuni-choyning madaniy meros sifatidagi ahamiyati, inson salomatligi uchun foydasi va iqtisodiyotga ta’sirini e’tirof etish, ishlab chiqarishni “daladan piyolagacha” barqaror bo’lishini ta’minlash, uning odamlarga, madaniyatga va atrof-muhitga foydasi haqida tushuncha berish hamda xalqaro choy kunini nishonlash orqali uni

tayyorlash an'analari kelgusi avlodlarga etib borishini ta'minlash uchun imkoniyatdir. Yaponiyada ham Xalqaro choy kuni doirasida choy marosimlari orqali badiiy-estetik madaniyat targ'ib qilish, madaniy almashinuv va barqarorlikka e'tibor qaratish muhim rol o'ynaydi. Yapon choy marosimi UNESCO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida tan olingan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti choy marosimi madaniyatini ijtimoiy integratsiya va barqaror rivojlanishga hissa qo'shuvchi omil sifatida ko'radi.

Adabiyotlar/ Литература/ References.

1. Пронников В.А., Ладонов И.Д. Японцы. – М.: «Наука», 1983. – С. 270.
2. Мурасаки Сикибу Повесть о Гэндзи (Гэндзи-моногатари). – М.: Наука, 1992. – С. 192.
3. [https:// uz.emb-japan.go.jp](https://uz.emb-japan.go.jp)
4. ujc.uz
5. НИППОНИЯ. Журнал. Heibonsha ltd/Япония, 2002.
6. <https://visitjapan.ru>
7. Самохвалова В.И. Традиционные японские искусства. – М., 1998. – С.350.
8. Ахмедова М.А. Японская философия. – Ташкент, 2004. – С.60.
9. Нагата Хироси История философской мысли Япония. – М.,1991. – С.131.
10. Узбекистан и Япония на возрождающемся Шелковом Пути. Сборник докладов научном конференции. – Ташкент, Международный караван-сарай культуры Икуо Хираямы. – Ташкент 2007. – С.164
11. Insonhuquqlari.uz.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000